

TILSHUNOSLIKDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR ETIMOLOGIYASINING
O‘RGANILISHI

Nishonova Shaxnoza Muxammadjonovna
Qo‘qon Davlat Pedagogika insituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda o‘zlashgan so‘zlar etimologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘zlashgan so‘zlar har bir tilning lug‘at boyligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada o‘zlashgan so‘zlarning kelib chiqishi, ularning dastlabki manbalari va til tizimida qanday moslashuvi tahlil qilinadi. Bu jarayon til tarixini o‘rganishda, madaniy ta’sirlarni aniqlashda va leksik birliklarning semantik o‘zgarishlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida turli tillardan olingan so‘zlarning etimologik tahlili misollar asosida yoritiladi. Natijada maqola o‘zlashgan so‘zlar orqali tillararo aloqalar va ularning rivojlanish jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zlashgan so‘zlar, etimologiya, tilshunoslik, lug‘at boyligi, madaniy ta’sir, til tarixiy taraqqiyoti, semantik o‘zgarishlar, tillararo aloqa.

Kirish: Har qanday tilning lug‘at tarkibi uzluksiz o‘zgarishda va yangilanishda bo‘ladi. Tilning lug‘at tarkibini har xil davrlar bo‘yicha taqqoslash o‘sha xalqning rivojlanish xarakterini tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Hozirgi davr tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiatini tashkil qiluvchi tizim uning rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omildir. Dunyoda yoki ma’lum ijtimoiy guruhda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning lug‘at tarkibida aks etishi tilning jamiyat hayoti bilan aloqasi tufayli sodir bo‘ladi.

Asosiy qism: Bu borada tilshunos olim V.V.Vlasicheva tilning o‘zgarib borishi til faktlarining vazifalarini qayta taqsimlash, yangi qoidalarni shakllantirish, aniqlash yoki ilgari mavjudlarini chiqarib tashlash yo‘li bilan boshqa ko‘rinishga kelishini aytib o‘tgan. Tildagi har qanday yangi yuzaga kelgan hodisa jamiyat tomonidan qabul qilingan zaruriyat tufayli vujudga keladi. Jamiyat to‘la yakkalangan holda boshqa madaniyat bilan o‘zaro bog‘lanishsiz va tajriba almashmasdan mavjud bo‘la olmaydi. Shu nuqtai nazardan til aloqalari tildagi o‘zgarishlarning muhim ahamiyatli manbasi, birinchi navbatda eng o‘tkazuvchan hamda leksik qatlamda tez o‘zgaradigan hisoblanadi.

Shu kundagi global jarayonlar nuqtai nazaridan til aloqalarini o‘rganish etno-madaniy ziddiyatlarni kamaytirish hamda milliy tenglikni saqlash uchun, ayniqsa, muhim bo‘lib qolayapti.

Tillarning bir-biriga ta’siri g‘oyasi antik davrdayoq paydo bo‘lgan, ammo til aloqalari to XIX asrgacha tadqiqot predmeti sifatida qabul qilinmagan. Kontakt lingvistika alohida tilshunoslik yo‘nalishi sifatida 1953 yilda, o‘sha paytgacha to‘plangan ma’lumotlarni hamda nazariy axborotlarni tizimlashtirishga urinishni ifodalagan U.Vaynrayx va E.Xaugen larning ishlari paydo bo‘lganidan keyin shakllandi. Ilmiy paradigmaning antropologik paradigmaga almashishi munosabati bilan XX asrning 70-yillariga kelib kontakt lingvistika rivojlanishningnavbatdagi bosqichi boshlandi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, til aloqalarini kulturologik ma’lumotlarsiz o‘rganib bo‘lmaydi, chunki boshqa til elementlarini o‘zlashtirish faqat til sohiblarining kommunikatsiyasi doirasidagina sodir bo‘ladi.¹¹

Soʻz oʻzlashtirishda til egalarining muloqoti muhim ahamiyatga ega. Ancha yillardan beri mazkur masala yuzasidan oʻtkazilgan salmoqli tadqiqotlarga qaramay, ushbu sohada izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu oʻrinda aytish joiz-ki, soʻz oʻzlashtirish ikki tomonlama amalga oshiriluvchi jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning biri til egalarining muloqoti, ichki va tashqi omillar boʻlsa, ikkinchisi soʻzlar tilga oʻzlashtirilib oʻsha tilning lugʻat boyligini oshiradi va oʻzlashgan soʻz oʻzi uchun tilning yangi fonetik, leksik va grammatik, hatto semantik meyorlariga moslashadi. Oʻzlashgan soʻzlarning assimilyatsiyasi, ichki va tashqi taʼsir etuvchi omillar, qolaversa bevosita va bilvosita til aloqalari masalalarining oʻziga xos tomonlarini tadqiq qilish muammoning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Soʻz oʻzlashtirish jarayoni bir tomonlama yoʻnalishda shakllanmaydi. Shu oʻrinda aytish mumkin-ki, oʻzlashtirilgan soʻzlar muammosi oʻz aksini fanlararo yondashuvlar va alohida yoʻnalishlar doiralarida topadi.

Darhaqiqat, soʻz oʻzlashtirish masalasi koʻp sonli fanlar chorrahasida tadqiq qilingan. Uning fanlararo tadqiqi masalasida V.V.Vlasicheva oʻz qarashlarini ilgari surib, sotsiolingvistikada oʻzlashtirish jarayoniga samarali taʼsir koʻrsatuvchi ekstralingvistik omillar yuzasidan YE.D.Polivanov, V.Y. Rozensveyg, U. Vaynrayx, E. Xaugen, G. Fritz, N. Fallou,

N. Dittmar, psixolingvistikada bilingvizm va interferensiya muammolari boʻyicha L.V. Shcherba, A.A. Leontev, V.P. Belyanin, R.M. Frumkina, YE. M.Vereshchagin, YE.K.Chernichkina, S.Romaine, J.Walters, S.Baker va boshqa olimlar tomonidan atroflicha tadqiqot olib borganliklarini eʼtirof etadi. Shuningdek, oʻzlashmalarni oʻrganishga stilistika (D.E. Rozental, Y.T. Listrova-Pravda, K.V. Zapadnaya, M. Haspelmath, U.Tadmor va b.), leksikologiya (L.P. Krisin, L.G. Samotik, Y.S. Sorokin, B.P. Berkov, V.V.Kabakchi, A.YE. Suprun, V.G. Kostomarov, YE.M. Vereshagin, N.V.Gabdreyeva,

G. Cannon. J. Grzega va b.), tarjimashunoslik (A.A. Reformatskiy, A.V.Fedorov, G.V. Chernov, S. Vlaxov, N.S.Silkina, M.Frankenberg-Garcia va b.) sohalarida bir necha tadqiqotlar olib borilgan, deydi.

Til aloqalari umumlingvistik muammolardan biri hisoblanib, uning tadqiq qilinishi tillarning oʻzaro aloqalarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga egadir. Yagona davlat chegarasi doirasida yashovchi hamda bitta ijtimoiy-siyosiy tuzumga kiruvchi yoki bevosita hududiy yaqinlikka ega boʻlgan til egalarining aloqalari tilshunoslar tomonidan oʻrganilgan boʻlsada, lekin xududlari uzoq masofa bilan ajratilgan hamda har xil ijtimoiy-siyosiy tuzumlarga kiradigan xalqlarning til aloqalariga oʻzbek, rus va chet el tilshunosligida yetarli darajada eʼtibor berilmaganligi masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Maʼlumki, Yevropa mamlakatlarining til aloqalari nisbatan yaxshi oʻrganilgan. Masalan, Angliyaning Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari bilan til aloqalari bir qator tilshunoslarning tadqiqot obekti boʻlgan.

Ayni paytda Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari (ingliz, nemis, fransuz tillari va b.) va Yaqin Sharq mamlakatlarining (arab, fors, turk tillari va b.) til aloqalari masalasi, xususan, ingliz-sharq tillari aloqalari hali yetarli darajada yoritilmagan va mazkur masala oʻz yechimini kutmoqda.

Ingliz tilidagi sharq tillaridan kelib chiqqan soʻzlar toʻgʻrisida ayrim mulohazalar baʼzi bir chet ellik tadqiqotchilarning ishlarida uchrab turadi. Biroq, deyarli barcha izlanuvchilar ingliz tilida eng koʻp qoʻllaniladigan sharq tillaridan kirgan soʻzlarni sanab oʻtish bilan cheklanib qoladilar, xolos.

Xulosa: Sharqiy xalqlar tillaridan o‘zlashgan so‘zlar masalasida ko‘proq e‘tibor “arabizmlar”ga qaratilgan. Jumladan, tadqiqotchi V.Teylorning 1933 yilda Qohirada chop etilgan “Ingliz tilida arabcha so‘zlar” nomli ilmiy ishida ingliz tilidagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ro‘yxati tuzilib, so‘zlarning birinchi qaydi keltirilgan, shuningdek arabcha so‘zlarning qo‘llanilish sohalari bo‘yicha ularning tasnifi berilgan. Biroq, V.Teylor o‘z ishida arabizmlarning tilga o‘zlashish yo‘llari va ularning ingliz tili zaminida o‘zlashtirilishi haqidagi masalaga to‘xtalmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Trud! SAGU, Istoriya Sredney Azii i Uzbekistana. Novaya seriY. Vt XXVIII, kn. 11, – Tashkent, 1956, s.41-52, Vt XS, kn. 14, T., 1957. s. 193-217”.
2. Abayev V.I. O yazykovom substrate. – “Dokladi i soobsheniya instituta yazykoznaneya AN SSSR”, №9, – M.: 1956. – S. 57-69.
3. Abaskuliyev T. K voprosu ob obogashenii slovarnogo sostava angliyskogo yazyka na baze arabskix zaimstvovaniy. // Teoreticheskiye i prakticheskiye voprosi prepodavaniya inostrannix yazykov. – M.: 1970. – S. 16.
4. Akbari R.M. Russko-persidskiye yazykoviye kontakti (na materiale zaimstvovaniy): Avtoref. diss...kand.filol.nauk. – Kazan, 2014. – 22 s.
5. Amosova N.N. Etimologicheskiye osnovi slovarnogo sostava sovremennogo angliyskogo yazyka. – M.: Izd-vo literaturi na inostrannix yazykax, 1956. – 216 s.
6. [Anorbekova A.](#), [Mirzayeva SH.](#) Hozirgi O‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Noshir, 2012. – 316 b.
7. Aristova V.M. K istorii angliyskix slov v russkom yazyke: Avtoref.kand.diss... filol.nauk. – Samarkand: 1967. – 22 s.
8. Barannikova L.I. O yazykovix kontaktax. Vzaimodeystviye i vzaimoobogasheniye yazykov narodov SSSR. – M.: 1969. – S. 200.
9. Belchikov Y.A. Internatsionalnaya terminologiya v russkom yazyke. – M.: Uchpedgiz, 1959. – 80 s.
10. Blajevich Y.S. Leksicheskaya interferensiya v usloviyax yazykovogo kontakta (na materiale yazyka russkix emigrantov v Portugaliy): Avtoref. diss...kand.filol.nauk. – Belgorod: 2011. – 23 s.
11. Bogorodiskiy V.N. K voprosu o "smeshannix" yazykax// Izvestiya obsh-va arxeol., istorii i etnografii. T. 12. Vip. 1. – Kazan: 1894. – S. 37- 54.